



TA'LIM FIDOYILARI

REANDPUB.COM

ISSN: 2180-2130
VOL.1, ISSUE 1
APRIL (2022)

ARPEL

2022

TA'LIM FIDOYILARI

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI



CYBERLENINKA



REANDPUB.UZ

.UZ

| | | |
|----|--|-----|
| 34 | MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOG KADRLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI METODIK ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Muminova Munojat Yuldashevna Xakimova Iroda Xayrullayevna</i> | 205 |
| 35 | <u>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AGRESSIV XULO-ATVORNI BARTARAF ETISH</u> <i>Solohiddinova Nafisa Sodiqjonovna</i> | 210 |
| 36 | BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IMLOVIY BILIMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AN'ANAVIY USLUBLARI. <i>Mannapova Munisa Abidjanovna</i> | 215 |
| 37 | STUDIES ON THE ENGLISH MODAL AUXILIARIES <i>Raximova Ma'mura Baxtiyorovna Jalolova Shahnoza Muhamedjanovna</i> | 221 |
| 38 | JAMIYATDAN AJRATISH BILAN BOG`LIQ BO`LMAGAN JAZOLAR TIZIMIDA HARBIY YOKI MAXSUS UNVONLARDAN MAHRUM QILISH JAZOSI <i>Ma'murov Sanjarbek Ilxomovich D. Kamalova</i> | 232 |
| 39 | O'ZBEKİSTON İQTİSODİYOTIDA TARMOQLARARO AUTSORSİNG FAOLİYATI RIVOJI VA UNİNG AFZALLİKLARI <i>Abdulloev Asliddin Junaydullaevich Yo'ldoshev Shohjahon To'lqin o'g'li</i> | 240 |
| 49 | BOLALARDA OBRAZLI TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHGA OID MULOHAZALAR <i>Валижон Кадиров</i> | 246 |
| 50 | O'ZBEK TİLİ DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGİK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI <i>Angurova Janat Turdaliyevna</i> | 250 |
| 51 | YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARGA MISOLLAR <i>Po'latova Dilfuza Askarovna</i> | 255 |



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TARMOQLARARO AUTSORSING FAOLIYATI RIVOJI VA UNING AFZALLIKLARI

Abdulloev Asliddin Junaydullaevich, PhD;

Yo'ldoshev Shohjahon To'lqin o'g'li , magistr

Annotatsiya: Bugungi rivojlanib borayotgan dunyo iqtisodiyotida juda ko'p sohalar hozirda autsorsing shaklida tashkil qilinganligi sabab katta yutuqlarga erishgan. Hozirda O'zbekistonda ham iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish maqsadida juda ko'p sohalarda autsorsing tadbiq etilmoqda. Jumladan IT-Park lar tashkil qilinib, ularning faoliyati bo'yicha ko'plab qo'shma dasturlar qabul qilingan.

Kalit so'zlar : Autsorsing faoliyati, xarajatlarni optimalllashtirish ; autsorsing statistikasi ; kooperatsiya; rentabellik; investitsiya; infratuzilma , kompaniyaning kapitalizatsiyasi .

Iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo'layotgan raqamli inqilob insoniyat hayotini shiddat bilan o'zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga ,xalqaro raqobat maydonining yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi . Hozirgi kunda O'zbekistondagi bu raqamli inqilob ta'siri natijasida yurtimizda autsorsing faoliyatiga talab ortib boryapdi. 2019-yilda Germaniyadan tashrif buyurgan Oldenburg universiteti professorlari va ilmiy xodimlari Toshkentdag'i IT-Park faoliyati va dasturlari bilan tanishib, O'zbekiston Respublikasida autsorsing markazlarini ochishga qiziqish bildirdilar.

2021-yilning 8-14-noyabr kunlari IT Park direktori Farhod Ibragimov boshchiligidagi delegatsiya Bangladesh Xalq Respublikasi Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vaziri Zunaid Ahmad Palak'ning taklifini qabul

qilib, Bangladesh Xalq Respublikasining Dakka shahrida bo‘lgan Butunjahon axborot texnologiyalari kongressida (WCIT) ishtirok etdi.³⁵

Har yili “WCIT”da 2 milliondan ziyod odam, 75 mamlakat, 1500 delegat va 100 spiker ishtirok etadi. O‘zbekiston delegatsiyasining asosiy missiyasi O‘zbekiston bozoriga manfaatdor autsorsing IT-kompaniyalarini jalb qilish va axborot texnologiyalari sohasida mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishdan iborat bo‘ldi.

Delegatsiya konferensiya ishtirokchilarini O‘zbekistonning raqamli transformatsiyasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlari, jumladan, respublika IT infratuzilmasini yaratish, shuningdek, IT Park’ning IT autsorsing, IT’ni rivojlantirish hamda ta’lim, IT kompaniyalari va startaplarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha asosiy loyihalari bilan tanishtirishga muvaffaq bo‘ldi.

Delegatsiya “WCIT” Butunjahon Kongressida ishtirok etishdan tashqari, yirik mahalliy tashkilotlar va IT kompaniyalar bilan qator ikki tomonlama uchrashuvlar tashkil etishga muvaffaq bo‘ldi. Bangladesh Call-markazlari va autsorsing assotsiatsiyasi – BACCO, Bangladesh Amerika xalqaro universiteti (AIUB), Hi-Techpark”, “SuperTel”, “KOW”, “Digicon Telecommunication”, “Genex”, “Golden Harvest”, “Fifotech” va “Dohatec” autsorsing kompaniyalari shular jumlasidan.

Bugunda iqtisodiyotimizning ko‘plab tarmoqlarida autsorsing tizimi joriy qilinayotganini sezish qiyin emas. Bunga misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig’ilishidagi ma’ruzalarida quyidagicha deyilgan : “Qo‘shinlarni oziq-ovqat bilan ta’minalash bo‘yicha birinchi marta autsorsing tizimi joriy qilindi. Autsorsing degani shuki, harbiy xizmatchilarga kunlik ovqat tayyorlab berish bilan endi armiyaning o‘zi emas, balki mustaqil tashkilotlar shug‘ullanadi. Bu ishni tashkil qilish joylardagi hokimiyatlarga topshiriladi. Bunday tizimning joriy etilishi

³⁵ <https://www.spot.uz/oz/2021/11/17/it-park-bangladesh/>

shaxsiy tarkibni unga xos bo'lmagan vazifalardan ozod qilib, harbiy xizmatchilarning butun kuch-g'ayratini o'z professional malakasini oshirishga qaratish imkonini beradi. Biz bu yo'nalishdagi ishlarni, albatta, davom ettiramiz.”³⁶

Endilikda yillik daromadi 1 mldr dollardan yuqori bo'lgan kompaniya O'zbekistonda autsorsing imkoniyatlarini ko'rib chiqmoqda.³⁷ «Wirecard AG» bosh ijrochi direktori Yan Marsalek O'zbekistonda dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish autsorsing imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

Yillik daromadi 1 mldr dollardan yuqori bo'lgan dunyodagi eng ilg'or dasturiy ta'minot kompaniyaning a'zosi bo'lgan avstriyalik ishbilarmon yaqinda Toshkentga amalga oshirgan tashrifi davomida bu haqda ma'lum qildi.

Tashrif davomida Yan Marsalek Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Markaziy bank va «Aloqabank» vakillari bilan uchrashdi.

Tashrif dasturining yakuniy qismida Inha universiteti va Mirzo Ulug'bek innovatsiya markaziga tashriflar amalga oshirildi. MUIC faoliyati bilan tanishish, o'ta muhim huquqiy tartib va davlat tomonidan IT-kompaniyalarga taqdim etilayotgan imtiyozlar ishbilarmonni «Wirecard AG» uchun O'zbekistonda dasturiy ta'minotni ishlab chiqishni autsorsing qilish imkoniyati haqida o'ylashga majbur qildi.

Joriy yilning ikkinchi choragida poytaxtga kompaniya vakillari mahalliy IT-bozorni o'rGANISH, Mirzo Ulug'bek innovatsiya markazi rezidentlari orasidan bo'lg'usi xodimlarni va salohiyatli hamkorlarni aniqlash uchun tashrif buyurishi rejalahtirilgan.

«Wirecard AG» – barcha savdo kanallari orqali elektron to'lovlar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarni qo'llab-quvvatlaydigan texnologik guruh. Global

³⁶ <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/prezident-qoshinlarni-oziq-ovqat-bilan-taminlashdagi-autsorsing>

³⁷ <https://xabaruz.com/uz/texnologiya/yillik-daromadi-1-mldr-dollaridan-yuqori-bolgan>



platforma firibgarlikning oldini olish bo'yicha xalqaro to'lov shartnomalari va usullarini qo'shimcha yechimlar bilan birlashtiradi.

Kompaniyaning bosh idorasi Myunxen shahrida (Germaniya) joylashgan.

Daromad: 1 028 milliard dollar.

Kompaniyaning kapitalizatsiyasi: 12 milliard dollar.

Mijozlari soni: 25 000.

Xodimlari soni: 3 766 (2016-yil holatiga).

«Wirecard AG» Frankfurtda qimmatli qog'ozlar fond birjasida ro'yxatga olingan.

Yan Marsalyek – «Wirecard AG» bosh ijrochi direktori, 2010-yildan buyon kompaniyaning boshqaruv kengashi a'zosi hisoblanadi.³⁸

Ta'limgangi ko'plab yangiliklar va o'zgarishlar qatorida bunda autsorsing tizimini keng qo'llanilishi soha rivojini keng ta'minlaydi. Hozirda oily ta'lim muassasasi infratuzilmasiga servis xizmatlari ko'rsatishning alohida turlari , jumladan bino va inshootlar , talabalar turar joylari , sport obyektlaridan foydalanish , ularni tozalash , ta'mirlash , kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya tarmoqlarini saqlash va yuridik xizmatlar ko'rsatishni autsorsing shartlarida tashkil yo'lga qo'yildi³⁹ . Albatta bu kabi ko'plab ta'limgangi o'zgarishlar ma'lum bir o'tkazilgan eksperimentlar natijasida yuzaga kelgan . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son qarorining 3-bandiga muvofiq Toshkent shahrida joylashgan davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga tadbirkorlik subyektlari tomonidan tayyor ovqatlarni yetkazib berish bo'yicha eksperiment o'tkazildi.

³⁸ <https://xabaruz.com/uz/tehnologiya/yillik-daromadi-1-mlrd-dollaridan-yuqori-bolgan>

³⁹ <https://lex.uz/docs/-4415478>



Eksperiment jarayonida 60 nafar tadbirkor va 266 ta maktabgacha ta'lif muassasasi ishtirok etib, jami 63760 nafar tarbiyalanuvchini autsorsing usulida (maktabgacha ta'lif muassasasiga tayyor ovqat yetkazib berish yo'li bilan) ovqatlantirish tashkil etildi.

Eksperiment jarayonida tarbiyalanuvchilarning ishtirok etgan 3 358 nafar ota-onasi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, 2 921 nafar (87%) ota-onalar autsorsyerlar tomonidan tayyorlagan taomlarga ijobiy baho berdi.⁴⁰

Jadal sur'atlar bilan rivojlanib kelayotgan O'zbekistonda autsorsing faoliyati ko'plab yangi tarmoqlar va ish o'rinalarini yaratibgina qolmay , jamiyatdagi ko'plab oqsab qolayotgan sohalarning rivojini ta'minlaydi. Hozirda jahon tajribasiga aylanib qolgan ushbu soha Yangi O'zbekistonning istiqbolli kelajagi uchun zamin bo'lib xizmat qiladi .

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. М.Абуталипов. Компания фаолиятида аутсорсингдан фойдаланиш. //Корхонани бошқариш.№12, 2018.
2. Никулина О.В., Мурадян С.Г."Направления развития аутсорсинга в практике международного бизнеса"// "Экономика и предпринимательство".2013, 8 сон.
3. Аутсорсинг как практика корпоративного управления. <https://storage.piter.som.so>
4. "Science and Education" Scientific Journal
5. It-park.uz
6. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-inklyuziv-raqamlashtirish-va-biznes-jarayonlarni-autsorsing-qilish-bpo>
7. <https://xabaruz.com/uz/texnologiya/yillik-daromadi-1-mlrd-dollardan-yuqori-bolgan>

⁴⁰ <https://lex.uz/ru/docs/-4441105>



8. <https://www.spot.uz/oz/2021/11/17/it-park-bangladesh/>
9. <https://www.terabayt.uz/uz/post/uzbekiston-microsoft-bilan-aloqalarni-kuchajtiradi>
10. <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/prezident-qoshinlarni-oziq-ovqat-bilan-taminlashdagi-autsorsing>
11. <https://lex.uz/docs/-4415478>
12. <https://lex.uz/ru/docs/-4441105>